

YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 6671,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 12,3 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 107,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissi 2,1 % ga yetdi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	5 538,6	6 671,8	112,3
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 392,2	6 433,0	112,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	146,4	238,8	119,8
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 392,2	6 433,0	112,1
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 722,6	2 069,0	106,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 978,2	2 338,9	120,4
	sanoat	1 465,1	1 751,9	123,4

		Mlrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	513,1	587,0	111,7
	Xizmatlar	1 691,4	2 025,1	108,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	264,2	330,0	112,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	193,7	251,8	118,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 233,5	1 443,3	105,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7716,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga yuqoridir.







Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,2 % ni, sanoat tarmog‘i 27,2 % ni, qurilish 9,1 % ni va xizmatlar sohasi 31,5 % ni tashkil qildi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,4	96,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	3,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	31,9	32,2
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	36,7	36,3
	sanoat	27,2	27,2
	qurilish	9,5	9,1
	Xizmatlar	31,4	31,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4,9	5,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,6	3,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,9	22,5




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 106,3 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,2 %), sanoatda – 123,4 % (27,2 %), qurilishda – 111,7 % (9,1 %), xizmatlar sohasida – 108,2 % ni (31,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,1 % (5,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,0 % (3,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,8 % dan (22,5 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,0 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 6,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.) va qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,5 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 107,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 113,0 % va xizmat ko'rsatish sohasida – 110,7 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 67,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 69,0 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.